



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

*Izoh: 2024-yil yanvar-iyun hamda 2024-yil
1-iyul holatiga ma'lumotlar dastlabki, qolgan
davrlar bo'yicha yakuniy ma'lumotlar
keltirilgan.*



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING DOIMIY AHOLISI

2024-yil 1-iyul holatiga, dastlabki ma’lumotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-yil 1-iyul holatiga doimiy aholi soni **2 015,0** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **12,3** ming kishiga yoki **0,6 %** ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **984,1** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **48,8 %**), qishloq aholisi soni **1 030,9** ming kishi (**51,2 %**) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

2 015,0 ming kishi

Tabiiy o‘shish

+14,2 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar



48,8 %

Qishloq



51,2 %

Aholining tabiiy harakati yanvar-iyun

	kishi		o‘shish, kamayish (+,-)	har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2023y.	2024y.		2023y.	2024y.
Tug‘ilganlar	19 466	18 969	-497	19,8	19,0
O‘lganlar	4 871	4 782	-89	5,0	4,8
Tabiiy o‘shish	14 595	14 187	-408	14,8	14,2
Nikohlar	6 366	6 389	23	6,5	6,4
Ajralishlar	1 055	907	-148	1,1	0,9

Qoraqalpoq‘iston Respublikasi bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar 2024-yil yanvar-iyun




shundan: xorijdan ko‘chib kelganlar – 79 kishi

shundan: Ko‘chib ketganlar xorijga – 2 052 kishi

Yosh guruhlari bo‘yicha aholi soni


2024-yil 1-iyul holatiga



2024-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **30,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi


2024-yil 1-yanvar holatiga



2024-yil 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni **104,2 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib **33,2 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 0-4 yoshli bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni **97,8 ming kishini** tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya’ni **38,4 ming kishini** tashkil etgan.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2024-yil 1-yanvar holatiga



2024-yilning 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **72,7** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **70,5** yoshga, ayollar uchun esa **75,0** yoshga teng. Shahar joylar uchun kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **69,7** yoshni, qishloq joylar uchun **75,9** yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024-yil 1-iyul holatiga

Erkaklar



50,2 %

1 012,2 ming kishi

Ayollar



49,8 %

1 002,8 ming kishi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni

(1-iyul holatiga, ming kishi)

	2023-yil	2024-yil	O‘sish sur‘ati, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 986,8	2 015,0	101,4
Nukus shahri	336,4	342,1	101,7
tumanlar:			
Amudaryo	210,0	213,7	101,8
Beruniy	202,9	206,8	101,9
Bo‘zatov	21,8	21,8	100,0
Qorao‘zak	54,2	54,6	100,7
Kegeyli	74,5	75,1	100,8
Qo‘ng‘irot	135,2	136,6	101,0
Qonliko‘l	53,4	54,1	101,3
Mo‘ynoq	33,5	33,7	100,6
Nukus	53,3	54,4	102,1
Taxiatosh	76,4	77,0	100,8
Taxtako‘pir	38,8	38,9	100,3
To‘rtko‘l	226,5	230,3	101,7
Xo‘jayli	127,8	129,4	101,3
Chimboy	115,2	116,0	100,7
Shumanay	57,8	58,3	100,9
Ellikqal‘a	169,1	172,2	101,8

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi

1-iyul holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi


	2023-yil	2024-yil
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11,9	12,1
Nukus shahri	1 522,4	1 548,2
tumanlar:		
Amudaryo	205,6	209,3
Beruniy	51,3	52,3
Bo‘zatov	10,7	10,7
Qorao‘zak	9,2	9,3
Kegeyli	81,0	81,6
Qo‘ng‘irot	1,8	1,8
Qonliko‘l	71,8	72,7
Mo‘ynoq	0,9	0,9
Nukus	56,5	57,6
Taxiatosh	430,1	433,5
Taxtako‘pir	1,8	1,8
To‘rtko‘l	30,3	30,8
Xo‘jayli	231,9	234,8
Chimboy	80,0	80,6
Shumanay	73,9	74,5
Ellikqal‘a	31,2	31,8

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-yil 1-iyul holatiga 1 kvadrat kilometr ga o‘rtacha **12,1** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,2 ga** ortgan (2023-yil 1-iyul holatiga 1 kv.km.ga **11,9** kishi).

Tumanlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahrida 1 548,2 kishi, Taxiatosh tumanida 433,5 kishi, Xo‘jayli tumanida 234,8 kishi, Amudaryo tumanida 209,3 kishi, Kegeyli tumanida 81,6 kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Qorao‘zak tumanida 9,3 kishi, Qo‘ng‘irot tumanida 1,8 kishi, Taxtako‘pir tumanida 1,8 kishi, Mo‘ynoq tumanida 0,9 kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR

(yanvar-iyun holatiga)



Shahar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2024-yil yanvar-iyun, kishi

	Tug‘ilganlar soni	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	18 969	19,0 %
Nukus shahri	3 296	19,5 %
tumanlar:		
Amudaryo	2 114	20,0 %
Beruniy	2 156	21,1 %
Bo‘zatov	151	13,9 %
Qorao‘zak	469	17,3 %
Kegeyli	706	18,9 %
Qo‘ng‘irot	1 278	18,9 %
Qonliko‘l	529	19,7 %
Mo‘ynoq	295	17,6 %
Nukus	586	21,8 %
Taxiatosh	640	16,7 %
Taxtako‘pir	311	16,1 %
To‘rtko‘l	2 117	18,5 %
Xo‘jayli	1 251	19,5 %
Chimboy	1 045	18,1 %
Shumanay	448	15,5 %
Ellikqal‘a	1 577	18,5 %

Tug‘ilganlarning taqsimlanishi

yanvar-mart

O‘g‘il bolalar

4 966

Qiz bolalar

4 517



52,4 %

47,6 %

yanvar-iyun

O‘g‘il bolalar

9881

Qiz bolalar

9088



52,1 %

47,9 %



2024-yilning yanvar-iyun oylarida **19,0** mingta kishi tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **19,0** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **0,8** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida **19,8** promilleni tashkil etgan).

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-iyun



Chaqaloqlarning ota-onasi yoshi bo‘yicha taqsimlanishi

Otaning yoshi

Onaning yoshi

8,9 %
40 yosh va undan kattalar

78,5 %
25-39 yoshdagilar

12,6 %
25 yoshgacha



2,3 %
40 yosh va undan kattalar

66,6 %
25-39 yoshdagilar

31,1 %
25 yoshgacha


2024-yilning yanvar-iyun oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha: **12,6 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **78,5 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **8,9 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha:

31,1 % chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **66,6 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **2,3 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.


VAFOT ETGANLAR

(yanvar-iyun holatiga)




Vafot etganlarning taqsimlanishi

yanvar-mart



yanvar-iyun



Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti 2024-yil yanvar-iyun, kishi


	Vafot etganlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4 782	4,8 ‰
Nukus shahri	787	4,6 ‰
tumanlar:		
Amudaryo	437	4,1 ‰
Beruniy	460	4,5 ‰
Bo‘zatov	53	4,9 ‰
Qorao‘zak	149	5,5 ‰
Kegeyli	215	5,8 ‰
Qo‘ng‘irot	371	5,5 ‰
Qonliko‘l	138	5,1 ‰
Mo‘ynoq	73	4,4 ‰
Nukus	123	4,6 ‰
Taxiatosh	186	4,9 ‰
Taxtako‘pir	105	5,4 ‰
To‘rtko‘l	552	4,8 ‰
Xo‘jayli	288	4,5 ‰
Chimboy	359	6,2 ‰
Shumanay	112	3,9 ‰
Ellikqal‘a	374	4,4 ‰

2024-yilning yanvar-iyun oylarida **4,8** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,8** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida **5,0** promille bo‘lgan).



O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi


2024-yil yanvar-iyun, kishi



2024-yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **55,0 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,1 %** i – o‘simtalardan, **6,7 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **5,9 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,0 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,3 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, **20,0 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.


O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-iyun




2024-yilning yanvar-iyun oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **17,0 %** ni, 20-59 yoshlar orasida **25,5 %** ni, 60 va undan katta yoshlilarda esa **57,5 %** ni tashkil etgan.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR (yanvar-iyun holatiga)



Nikohlarning taqsimlanishi

yanvar- mart




Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2024-yil yanvar-iyun, birlik

	nikohlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	6 389	6,4 ‰
Nukus shahri	1 215	7,2 ‰
tumanlar:		
Amudaryo	664	6,3 ‰
Beruniy	751	7,3 ‰
Bo‘zatov	69	6,3 ‰
Qorao‘zak	142	5,2 ‰
Kegeyli	243	6,5 ‰
Qo‘ng‘irot	397	5,9 ‰
Qonliko‘l	165	6,2 ‰
Mo‘ynoq	82	4,9 ‰
Nukus	191	7,1 ‰
Taxiatosh	205	5,4 ‰
Taxtako‘pir	102	5,3 ‰
To‘rtko‘l	728	6,4 ‰
Xo‘jayli	376	5,9 ‰
Chimboy	317	5,5 ‰
Shumanay	130	4,5 ‰
Ellikqal‘a	612	7,2 ‰


yanvar- iyun



2024-yilning yanvar-iyun oylarida **6,4** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,4** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida **6,5** promille bo‘lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR

(yanvar-iyun holatiga)



Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

yanvar- mart



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024-yil yanvar-iyun, birlik

	nikohdan ajralishlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	907	0,9 ‰
Nukus shahri tumanlar:		
Amudaryo	76	0,7 ‰
Beruniy	81	0,8 ‰
Bo‘zatov	8	0,7 ‰
Qorao‘zak	27	1,0 ‰
Kegeyli	34	0,9 ‰
Qo‘ng‘irot	79	1,2 ‰
Qonliko‘l	18	0,7 ‰
Mo‘ynoq	7	0,4 ‰
Nukus	23	0,9 ‰
Taxiatosh	25	0,7 ‰
Taxtako‘pir	15	0,8 ‰
To‘rtko‘l	121	1,1 ‰
Xo‘jayli	63	1,0 ‰
Chimboy	60	1,0 ‰
Shumanay	28	1,0 ‰
Ellikqal‘a	75	0,9 ‰


yanvar- iyun



2024-yilning yanvar-iyun oylarida **0,9** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida **1,1** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-iyun



Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-yilning yanvar-iyun oylarida jami nikohdan ajrashganlarning **31,5** % i farzandsiz, **35,6** % i bitta farzand bilan va **32,9** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha nikohdan ajrashganlarning 2024-yilning yanvar-iyun oylarida **907** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **0,9** promilleni tashkil etgan.

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni 5 408 kishini tashkil etdi.


Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami 7 226 kishini, migratsiya saldosi minus 3 993 kishini tashkil etdi. (2023-yilning yanvar-iyun oylarida minus 1 818 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni


(kishi)

	2023-yil yanvar-iyun			2024-yil yanvar-iyun		
	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Nukus shahri	1 278	1 855	-577	2 018	1 609	409
tumanlar:						
Amudaryo	151	421	-270	305	432	-127
Beruniy	160	346	-186	212	250	-38
Bo‘zatov	55	198	-143	49	188	-139
Qorao‘zak	99	271	-172	141	291	-150
Kegeyli	193	415	-222	202	401	-199
Qo‘ng‘irot	242	577	-335	232	500	-268
Qonliko‘l	133	266	-133	147	247	-100
Mo‘ynoq	91	203	-112	78	219	-141
Nukus	372	442	-70	465	416	49
Taxiatosh	224	481	-257	176	395	-219
Taxtako‘pir	87	356	-269	77	270	-193
To‘rtko‘l	222	297	-75	296	325	-29
Xo‘jayli	337	786	-449	379	580	-201
Chimboy	244	683	-439	218	571	-353
Shumanay	156	260	-104	141	230	-89
Ellikqal‘a	174	354	-180	272	302	-30

JAMI KO‘CHIB KELGANLAR (yanvar-iyun holatiga)




Ko‘chib kelganlarning taqsimlanishi



Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 2024-yil yanvar-iyun, kishi

	Ko‘chib kelganlar	shundan:	
		Respublika boshqa hududlaridan	Xorijiy mamlakatlardan
Nukus sh. tumanlar:	2 018	2 009	9
Amudaryo	305	304	1
Beruniy	212	212	0
Bo‘zatov	49	49	0
Qorao‘zak	141	141	0
Kegeyli	202	199	3
Qo‘ng‘irot	232	220	12
Qonliko‘l	147	146	1
Mo‘ynoq	78	74	4
Nukus	465	455	10
Taxiatosh	176	168	8
Taxtako‘pir	77	71	6
To‘rtko‘l	296	292	4
Xo‘jayli	379	363	16
Chimboy	218	218	0
Shumanay	141	136	5
Ellikqal‘a	272	272	0


yanvar-iyun



2024-yilning yanvar-iyun oylarida **5,4** mingta ko‘chib kelganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib kelish koeffitsiyenti **5,4** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **1,1** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida **4,3** promille bo‘lgan).

JAMI KO‘CHIB KETGANLAR

(yanvar-iyun holatiga)



Ko‘chib ketganlarning taasimlanishi

yanvar-mart

Erkaklar

1 584

Ayollar

2 098



43,0 %

57,0 %

Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib ketganlar soni 2024-yil yanvar-iyun, kishi

	Ko‘chib ketganlar	shundan:	
		Respublika ning boshqa hududlariga	Xorijiy mamlakatlarga
Nukus sh. tumanlar:	1 609	1 127	482
Amudaryo	432	342	90
Beruniy	250	169	81
Bo‘zatov	188	145	43
Qorao‘zak	291	238	53
Kegeyli	401	344	57
Qo‘ng‘irot	500	242	258
Qonliko‘l	247	221	26
Mo‘ynoq	219	156	63
Nukus	416	338	78
Taxiatosh	395	234	161
Taxtako‘pir	270	141	129
To‘rtko‘l	325	264	61
Xo‘jayli	580	315	265
Chimboy	571	454	117
Shumanay	230	206	24
Ellikqal‘a	302	238	64

yanvar-iyun

Erkaklar

3 044

Ayollar

4 182



42,1 %


57,9 %



2024-yilning yanvar-iyun oylarida **7,2** mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti **7,2** promilleni tashkil etgan hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan **1,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-iyun oylarida **8,4** promille bo‘lgan).

Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi


2024-yil yanvar-iyun



Qoraqalpog‘iston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasidan **73** kishi, Turkmaniston Respublikasidan **5** kishi va Rossiya Federatsiyasidan **1** kishi va kelgan.

Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2024-yil yanvar-iyun



Qoraqalpog‘iston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasiga **2 030** kishi, Rossiya Federatsiyasiga **16** kishi, Turkmaniston Respublikasiga **4** kishi va boshqa mamlakatlarga **2** kishi ketgan.

Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya‘ni me‘yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta‘sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya‘ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish



so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya, mehnat va gender
statistikasi bo‘limi
Tel: 61 222-76-57